

2. Калугина Ю. В. Медиа-текст экономического кризиса как разновидность публицистического стиля // фундаментальные исследования. Издательский Дом «Академия Естествознания» (Пенза). — 2013. — № 4–2. — С. 507–51
3. Винокур Г.О.. Публицистический стиль и его функционирование, Бикмуканова С. И. Искаировна, Оренбургский государственный педагогический Университет, г. Оренбург.
4. Прохоров Е.П. Публицист и действительность. — М., 1973
5. Sohaga oid o'zbek tili. Toshkent – 2021. 22-bet.
6. Цао, Юэхуа. "Эволюция Газетно-Публицистического Стиля на Рубеже ХХ-XXI вв. (Лексический Аспект)." Автореферат, Московский педагогический государственный университет, Москва, 2004, р. 14.)
7. O'zbek tili uslubiyati masalalari. Imonov M. Nu'monov T., Boboxonova D. «Namangan» nashriyoti 2007.
8. Гребенина А.М. Обзор печати: Некоторые проблемы теории жанра. - М., 1980.
9. Блажов Е.А. Газетные жанры в экономической пропаганде. - М., 1974.
10. Пельт В.Д. Диф-ференциация газетных жанров. - М., 1984.
11. Информационные жанры газетной публистики: Хрестоматия. - М., 1986.
12. Аналитические жанры газеты: Хрестоматия - М., 1989.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI AKS ETTIRUVCHI MAQOLLAR REPREZENTATSİYASI

*Shohista YADGOROVA
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)
ixtisosligi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida shaxslararo munosabatlarni aks ettiruvchi maqollar reprezentatsiyasiga bag'ishlanadi. Shaxslararo munosabatlarni yoritib berishda ingliz va o'zbek tillaridagi ota-onalar va farzand, do'stlik haqidagi maqollardan foydalilanildi. Maqolada shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi ingliz va o'zbek maqollarining umumiy va farqli jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: maqol, shaxslararo munosabat, ota-onalar, farzand, do'stlik.

Maqollarning reprezentatsiyasi madaniy qadriyatlar va xalqining donoligini lo’nda, esda qolarli so’zlarda ifodalashni o’z ichiga oladi. Maqollar umuminsoniy haqiqatlarni ifodalovchi ixcham iboralar bo‘lib, ko‘pincha majoziy til va jonli tasvirlardan foydalaniladi. Ular madaniyatning umumiyligi bilimlari uchun oyna bo‘lib xizmat qiladi va hayot qiyinchiliklarini hal qilish uchun amaliy ko’rsatmalar beradi.

“Maqol xalqning ko‘p asrlar mobaynida ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to‘plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqr mazmunga ega bo‘lgan og‘zaki ijod janrlaridan biridir. Maqol atamasi arabcha – qavlun – gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan bo‘lib, aytilib yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo‘llaniladi. Barcha tomonidan deyarli bir xilda aytilib, bir xilda tushuniladigan ibora, ifodalar, asosan, maqol janrini tashkil qiladi” [3,91]. Maqollar avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismi bo‘lib, axloqiy qadriyatlarni, tanqidiy fikrlashni o‘rgatishda tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, maqollar inson xatti-harakati, munosabatlari va jamiyat dinamikasi haqida abadiy tushuncha beradi.

Har bir etnik guruh dunyoni o‘ziga xos tarzda, o‘z madaniyati, dunyoni idrok etish prizmasi orqali ko‘radi. Maqol va matallarni o‘rganmasdan turib, olamning lisoniy manzarasini o‘rganish mumkin emas [2,815]. P.Bakirovning fikricha, “Maqollarning universal tasnifini tuzishdan oldin, avvalo, har bir tilning maqol fondini chuqr o‘rganish, so‘ngra bir necha (ikki-uch) tilning maqol fondini qiyosiy tadqiq qilish, qiyoslanadigan tillar doirasini asta-sekin kengaytirib borish kerak. Gap shundaki, mantiqiy-semantic va strukturaviy-grammatik jihatdan o‘xshash qardosh va qardosh bo‘lmagan tillarning maqollari voqelikni belgilashda sezilarli farqlarga ega bo‘lishi mumkin”[1.53].

Dunyoda tillar o‘ziga xos nuqtai nazarlar, ifodalar va o‘zaro munosabatlarni aks ettiradi. Ingliz va o‘zbek tillari esa, ular alohida sifatlariga ega bo‘lishi bilan birga, shaxslararo munosabatlarda ajralmas o‘rin egallaydi. Ingliz va o‘zbek tillarida shaxslararo munosabatlar va ularning mazmunini ifodalovchi maqollarni oilaviy munosabatlar, qo‘sningchilik munosabatlari, do‘stlik munosabatlari kabi bir nechta guruhlarga ajratish mumkin. Oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maqollar guruhi ham

ota-onal va farzand, er-xotin, aka-uka, opa-singil, qarindoshchilik kabi kichik guruhlarga ajratiladi.

Quyida ota-onal va farzand o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi maqollarni ko'rish mumkin: (*ingliz tilida*) “Like father, like son”, “Like mother, like daughter”, “Blood will tell”; (*o'zbek tilida*) “Ot o'rnini toy bosar”, “Ota rozi – xudo rozi”, “Otalar so'zi – aqlning ko'zi”, “Onasini ko'rib qizini ol.”

Har bir millat va madaniyatda farzand ulug‘ ne'mat sifatida qubul qilinadi. Bu ularning maqollarida ham aks etadi: (*ingliz*) *He that has no children knows not what is love; The best smell is bread, the best savour salt, the best love that of children.* (*o'zbek*) *Bola – aziz, odobi undan aziz; Tog'ning ko'rki – lola bilan, Uyning ko'rki – bola bilan.*

Farzandning aziz va qadrliligini aks ettiruvchi maqollar bilan birlgilikda noqobil farzandlar haqidagi maqollarni ham uchratish mumkin: *Many a good father has but a bad son.* (*Ko'p yaxshi otalarning yomon o'g'li bo'ladi.*) – *Besh qo'l barobar emas.*

“Bir turkum maqollarda bolani also erka qilib o'stirmaslik zarurligi uqtiriladi” [5,52]: (*o'zbek tilida*) *Bolaning erkasi – bitning sirkasi. Qizni erkalatsang, ernennga tepar, O'g'ilni erkalatsang, burningga tepar. Yaxshi farzand suydiradi, yomon farzand kuydiradi;* (*ingliz tilida*) *Children suck the mother when they are young, and the father when they are old; A little child weighs on your knee, a big one on your heart.*

O'zbek xalqida kattalarga hurmat va izzat ko'rsatish munosabati milliy qadriyatlardan biridir. Bu maqollarda ham namoyon bo'ladi: *Bola – xizmatda, ota – izzatda; Bolalilar bosh bo'lar, Bolasizlar yosh bo'lar.*

Ingliz maqollarida ham ota-onal ulug‘langanligi ko'rish mumkin: *One father is more than a hundred schoolmasters; An ounce of mother is worth a ton of priest.*

Shaxslararo munosabatni ifodalovchi maqollarga nikoh va er-xotin munosabatini ham kiritish mumkin: *Xotin hurmat qilsa, hurmat ko'radi, Er hurmat qilsa, ne'mat ko'radi; Bo'ldiradigan ham xotin, o'ldiradigan ham xotin.*

Inglizlarda nikohning afzalligi hamda noafzalligini ifodalagan maqollar ham mavjud: *A man without a wife is but half a man. A good wife and health is a man's best wealth. Wedlock is a padlock.*

Shaxslararo munosabatlarni aks ettiruvchi maqollar sirasiga do'stlik haqidagi maqollar ham kiradi. Aynan bu turdag'i maqollar ikki yoki undan ortiq insonlar o'rtasidagi do'stlik munosabatlarini ochib beradi. Quyida ingliz tilidagi do'stlikka oid maqollar va ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlari misol sifatida keltirilgan:

“A friend in need is a friend indeed.” – “Yaxshi do'st kulfatda sinaladi.”; *“United we stand, divided we fall.”* – “Birlashgan o'zar birlashmagan to'zar.”

Ushbu maqollar qiyin paytlarda haqiqiy do'stlikning ahamiyatini ta'kidlaydi. Shaxslararo munosabatlarda bu maqol rishtalarni mustahkamlashda sadoqat va hamjihatlikning muhimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, ushbu maqollar odamlarning hamjihatligi va hamkorligidan kelib chiqadigan kuch va mustahkamlikni ifodalarydi. Bu shuni ko'rsatadiki, odamlar bir joyga yig'ilib, umumiylar maqsad sari harakat qilsalar, ular to'siqlarni yengib o'tishlari va muvaffaqiyatga erishishlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shaxslararo munosabatlarni aks ettiruvchi maqollarning ingliz va o'zbek tillarida ifodalanishi insonning xulq-atvori, qadriyatlari va jamiyat dinamikasi haqida chuqur tushunchalarni ochib beradi. Maqollar ixcham va majoziy til orqali munosabatlarning turli tomonlarini, jumladan, ota-onalar va bolalar, do'stlar va umuman odamlar o'rtasidagi munosabatlarni boshqarish uchun abadiy donolik va amaliy ko'rsatmalar beradi. Maqollar turli xil madaniy kontekstlarda munosabatni shakllantirish, hamdardlikni rivojlantirish va tushunishni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 287 с.
2. Fayzullaeva, T. M. (2019). The Concept “Love For The Homeland” in the English And Uzbek Proverbs. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
3. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs – Maqollar – Пословицы. – Т.: Mehnat, 2000. –398 b.

4. Mirzayev T., Musoqluv A., Sarimsoqov B. O’zbek xalq maqollari lug`ati. – Toshkent, “Sharq”, 2013.
5. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – 448 b.
6. Fergusson Rosalind. The Penguin Dictionary of Proverbs. Over 6000 proverbs. – London: Claremont Books, 1995. – 240 p.